Materiallar to'plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA'LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Maqollarda tilning funksional tahlili

Dilfuza Turdalieva*

Farg'ona davlat universiteti (FarDU)

✉ d.turdaliyeva@fdu.uz

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tildagi kommunikativlik, ekspressivlik, konstruktivlik, akkumulyativlik kabi funksiyalar sirasi zamonlar o'tishi bilan milliy yaxlitlikni, ajdodlar hamda avlodlarning uzluksizligini ta'minlash kabi juda ko'p xususiyatlar bilan boyib borayotganligi nazariy misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

maqol, til, kommunikativ, kognitiv, akkumulyativ, nominativ, emotiv, ekspressiv, interaksiya, tushuncha, nazariya, mulohaza.

DOI: 10.5281/zenodo.23278751

Til muttasil tarzda rivojlanib borar ekan, har bir davr va ijtimoiy muhitda uning yangidan-yangi qirralari ochilib boraveradi. Tilga ijtimoiy hodisa sifatida qarash – uning belgilari, funksiyalari va xususiyatlarini belgilashdan iborat. Tilning *kommunikativ* (muloqot), *kognitiv* (tafakkur), *akkumulyativ* (bilimlarni to'plash va saqlash), *nominativ* (narsa va obyektlarni nomlash), *emotiv-ekspressiv* (emotsiyani namoyon qilish, munosabat bildirish) kabi funksiyalari mavjud. Tadqiqotchilar tomonidan tilning madaniy hodisa, ijtimoiy interaksiya hosilasi ekanligi ta'kidlanadi. Biz olamni jamiyat tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarni matnda ifodalovchi (*aks ettiruvchi*) til vositasida anglaymiz. Bilim deganda "ijtimoiy-tarixiy tajribada sinovdan o'tgan va mantiqan tasdig'ini topgan borliqni bilishga doir natija va uning tasavvurlar, tushunchalar, mulohazalar, nazariyalar ko'rinishida inson ongida adekvat aks etishini" tushunamiz. Shu o'rinda qayd qilish joizki, til o'zida asosan tayyor fikrlarning "ifoda shakli"ni emas, balki "bilimlarning mazmuniy tuzilishi va tasavvurlari usulini" namoyon etadi.

Insonning olam haqidagi bilimlarni qabul qilishi uchun ushbu olam to'g'risidagi o'z tafakkur faoliyati samarasi bo'lgan bilimlarni egallagan bo'lishi lozim. Matnning samaradorligi nafaqat grammatik toifalarni bilishga va "mental lug'at"ga, balki ekstralingvistik (nolisoniy) omillar −olam haqidagi bilimlarni verballashtirishning lisoniy, aniqrog'i, konvensional shakllariga aloqador bo'lgan bilimlarga ham bog'liqdir. Shu boisdan, o'zida bilimlarni qayta ishlash jarayonlarini namoyon etuvchi leksik birliklar, matn yaratish, qayta bayon qilish va talqin qilish masalalariga doir zamonaviy tadqiqotlar kognitiv yondashuvlarning keng qo'llanilishi bilan xarakterlanishi bejizga emas. E.Kubryakovaning fikricha, "til birliklari, til toifalari, til sinflari, turli ifoda darajalari bilan bo'lsa-da, inson tomonidan qayta ishlanadigan mas'ulga aylangan mazmuniy axborotga ishora qiladi. Predmetni bilish faoliyati davomida olingan axbopot til shakllarida o'z aksini topadi, qayd qilinadi. Aynan shuning uchun "til axborotni qayta aks etish, transformatsiyalashda ahamiyatga ega bo'lgan umumiy kognitiv mexanizm, kognitiv vosita − belgilar tizimi sifatida" kognitiv lingvistika (tilshunoslik)ning, "...lisoniy fenomenlarni insonning tafakkur faoliyati asosida yotuvchi kognitiv mexanizmlar − bilimlarni tushunish, xulosa chiqarish, anologik fikrlash, baholash, ontologiyalash nuqtayi nazaridan tadqiq qilish va tavsiflash" yo'nalishining diqqat markazida turadi.

Tilga nisbatan kognitiv yondashuv doirasida tadqiqotchilarning diqqat-e’tibori “bilimning turli bilish jarayonlari, jumladan, nutqiy tafakkur faoliyatidagi roliga, bilimlarning inson xotirasida qayta namoyon bo‘lish shakllariga hamda mazkur bilimlarni xotirada tartibga soluvchi, zarur hollarda ularga tezkorlik bilan murojaat qila olishni ta’minlovchi tashkiliy tamoyillar”ga yo‘naltirilgan. So‘zlovchi shaxs yoki muallifning tinglovchi yoki kitobxonning diqqat-e’tiborini tortish, ularga kommunikativ ta’sir qilish, qiziqtirib qo‘yish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalg‘itish, hayajonga solish, to‘lqinlantirish, ishontirish yoki aldashga urinishida so‘zning, so‘z birikmasining ekspressiv-emotsional-baholovchi *konnotativ ma’nosini, ya’ni pragmatik ma’nosini* tadqiq qilish ehtiyoji vujudga keldi. Shunday qilib so‘z ifodalaydigan qo‘shimcha ma’noni qo‘llash kommunikativ-pragmatik ehtiyojlar tufayli ro‘y beradi.

Tilshunos R.O.Yakobson nutqiy akt jarayonini o‘rganib, uning to‘liq funksiyalari bilan birga, ikkinchi darajali omillarini ham chuqur o‘rganish kerakligini ta’kidlaydi. Shu jihatdan R.Yakobson tilning emotiv, fatik, metalingvistik va estetik funksiyalarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tadi. M.Yo‘ldoshyev o‘z ilmiy izlanishlarida tilshunos V.A.Avrorinning fikriga asoslanib, tilshunoslikka oid zamonaviy adabiyotlarda tilning, asosan, to‘rt-besh vazifasi qayd etilganligini, tilning kommunikativ (aloqa quroli, vositasi), ekspressiv (fikrlarni ifodalash), konstruktiv (fikrlarni shakllantirish), akkumulyativ (ijtimoiy tajriba va bilimlarni to‘plash, saqlash) vazifalarini farqlash lozimligini ta’kidlaydi.

Tilning funksional xususiyatlarini yoritishda maqollarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Ular orqali tilning bir qator funksiyalari yuzaga chiqadi:

Til, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganish, bo‘lishish va ifodalash uchun asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bu funksiya orqali insonlar o‘z fikrlarini, o‘ylarini, hissiyotlarini, talablarini va maqsadlarini boshqa insonlarga yetkazadilar. Maqollar, tilning kommunikativ funksiyasini o‘rganishda, izlanish, tarqatish, o‘zgartirish va uni tahlil qilishda keng qo‘llaniladi. Tilning kommunikativ funksiyasi, ya’ni tilning aloqa vositasi sifatida xizmat qilish qobiliyati maqollarda juda aniq aks etadi. Maqollar odatda qisqa, mazmunli va ko‘pincha hayotiy tajribalarni ifodalaydi, shu bilan birga ular turli madaniyatlar va xalqlar o‘rtasidagi muloqotni ham osonlashtiradi. Tilning kommunikativ funksiyasi maqollarda quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Maqollar, ko‘pincha, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan hayotiy tajribalarning qisqa va mazmunli ifodasidir. Ular maslahatlarga boy bo‘lib, kishilarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish uchun ishlatiladi. Misol: *“Yetti o‘lchab, bir kes”, “Izzat tilasang, ko‘p dema, sihat tilasang, ko‘p yema”* – bu maqollarda maslahat mazmuni aks etgan bo‘lib, odamlarni o‘ylab, tafakkur qilib, keyin ish yuritishga chorlaydi.

2. Maqollar, ko‘pincha, kishilarni turli xavflar va nojo‘ya harakatlardan ogohlantirish uchun ishlatiladi. Misollar: *“O‘ng ko‘zing chap ko‘zingga dushman”, “Chumchuq so‘ysa ham qassob so‘ysin”*.

3. Maqollar insonlar o‘rtasida axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni saqlash va targ‘ib qilish uchun xizmat qiladi. Misol: *“Bir kun urush bo‘lgan uydan qirq kun baraka ko‘tariladi”*. Maqollar odatda kishilarga kamtar va odobli bo‘lishni eslatadi. Misol: *“Kamtarga kamol, manmanga zavol.”*

4. Maqollar orqali insonlar bir-biriga muhim hayotiy tajribalari asosida maslahatlar beradilar. Misol: “*Ariq bir loyqalanib, keyin tinadi.”* – Bu maqol kishilarning turmushdagi kuzatishlari asosida yuzaga kelgan bo‘lib, hayotdagi qiyinchiliklar va kelishmovchiliklarga chidashga da’vat etadi.

Misollar tahlilidan ko‘rinadiki, maqollar turli madaniyat va xalqlar o‘rtasida muloqotni osonlashtiradi va hikmatli ma’nolari orqali odamlarni birlashtiradi. Bu qisqa va mazmunli iboralarda tilning kommunikativ funksiyasi aniq aks etadi.

1.Аврорин В.А. Проблемы изучения функционалной стороны языка. – Л.,1975. – С.44.

2.Кубрякова Е.С. Началные етапы становления когнитивизма: лингвистика − психология − когнитивная наука // Вопросы языкознания, 1994. − № 4. − С. 34-47.

3.Сўзнинг нутқий-тафаккур фаолиятидаги ўрни // https://moluch.ru/archive/383/84309/.

4.Якобсон Р. Лингвистика и поэтика // Структурализм: “за” и “против”. – М., 1975. – С. 197-203.

5.Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008.− Б. 83.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Аврорин В.А. Проблемы изучения функционалной стороны языка. – Л.,1975. – С.44.

[2] Кубрякова Е.С. Началные етапы становления когнитивизма: лингвистика − психология − когнитивная наука // Вопросы языкознания, 1994. − № 4. − С. 34-47.

[3] Сўзнинг нутқий-тафаккур фаолиятидаги ўрни // https://moluch.ru/archive/383/84309/.

[4] Якобсон Р. Лингвистика и поэтика // Структурализм: “за” и “про¬тив”. – М., 1975. – С. 197-203.

[5] Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008.− Б. 83.